



Special analysis of factors influencing language in migration processes

Yulduzkhon MIRZAAKHMEDOVA¹

University of Economics and Pedagogy

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

10 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

25 October 2024

Keywords:

language,
migration,
communication habit,
communication culture,
interlingual communication,
attitude results,
language system.

ABSTRACT

This article analyzes specific modern trends in factors affecting language within migration processes, highlighting the challenges in evaluating this impact. It particularly examines how aspects of labor migration influence language, using examples to illustrate these effects.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4/S-pp58-64>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Migratsiya jarayonlarida tilga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'ziga xos tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

til, migratsiya,
muloqot odati,
muloqot madaniyati,
tillararo aloqa,
munosabat natijalari,
lisoniy tizim.

Ushbu maqolada migratsiya jarayonlarida tilga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'ziga xos zamonaviy tendensiyalari tahlilga tortilgan. Bu jarayonni baholash ancha qiyin. Jumladan, mehnat migratsiyasining o'ziga xos tabiatining tildagi ta'siri misollar yordamida ko'rib chiqilgan.

¹ PhD, Associate Professor, Department of Philology, University of Economics and Pedagogy.
E-mail: mirzaaxmedovayulduz@gmail.com

Специальный анализ факторов, влияющих на язык в миграционных процессах

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

язык,
миграция,
коммуникативная
привычка,
культура общения,
межъязыковое общение,
результаты
взаимоотношений,
языковая система.

В данной статье рассматриваются современные тенденции влияния языковых факторов на миграционные процессы, которые зачастую сложно оценить в полной мере. Особое внимание уделено влиянию трудовой миграции на язык, что иллюстрируется конкретными примерами, показывающими, как особенности миграции отражаются на языковой среде.

KIRISH

Insoniyat tarixida migratsiyalarning o'rni katta. Katta-katta xalqlarning o'rnidan qo'zg'alib odatiy yashash joyidan minglab chaqirim joyga ko'chib o'tishi xalq tarixining noyob indikatori bo'lgan tilda o'z aksini topishi aniq. Migratsiya natijalarini bir xilda baholab bo'lmaydi. Migratsiyaning tinch ko'rinishi ham, urushlar, genotsid, tabiiy falokatlar bilan bog'liq ko'rinishi ham migrantlar va yerli xalq hayotida o'chmas iz qoldiradi. Shuningdek, tilida ham. So'z o'zlashtirish borasidagi tadqiqotlar ko'p bo'lsa ham, migratsiyaning umuman nutqiy jarayonga ta'siri borasidagi tadqiqotlar kam. Xususan, o'zbek tilshunosligida bu boradagi tadqiqotlar hali lavha xarakterida. Biz ushbu maqolamizda zamonaviy hayotimizning ajralmas qismiga aylangan mehnat migratsiyasining tilga ta'siri masalasiga to'xtalmoqchimiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAG'LILI

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi bir qator zamonaviy yo'nalishlar tarkibida bir necha tilli muloqot hududida tildagi o'zgarishlarga qiziqish boshlandi. Bular, asosan, badiiy asarlarda lingvostilistik, sotsiolingvistik nuqtayi nazardan sinchkovlik bilan o'rganildi. Bir nechta tillarda so'zlashuvchilarning psixologik-kognitiv o'ziga xosligini tahlil qilgan bir nechta tadqiqotlar [1] ham mavjud. Ammo aynan zamonaviy migratsiya jarayonlarining tilga ta'siri borasida tadqiqotlarga duch kelmadik.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kuzatish, so'rovnoma o'tkazish va statistik metodlardan foylanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kuzatishlarimizga ko'ra, migrantlarning respublika iqtisodiy hayotidagi o'rni katta. Tashqi mehnat migratsiyasi mamlakatimizda mehnat bozoridagi keskinlikni yumshatadi. Tashqi mehnat migrantlarining soni o'rtacha 2,5 million kishini yoki band bo'lgan aholining deyarli 20 foizini tashkil etadi (ularning pul o'tkazmalari 2019 yilda 6,1 mlrd. AQSh dollariga yetgan). Ayonki, tashqi mehnat migratsiyasi yuqori ko'lami (band bo'lgan aholining 20 foizidan ko'prog'i) mamlakatda ish joylarining yetishmasligi, ish haqining nisbatan pastligi va boshqa omillar bilan bog'liq. Tashqi mehnat migratsiyasi O'zbekiston iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishiga qaramay (tashqi mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari hajmi YaIMning 10-15 foiziga teng), inson kapitalidan mamlakat taraqqiyoti uchun yanada keng foydalanish choralari ko'rish, boshqacha aytganda, xorijga ish izlab

ketadiganlar sonini kamaytirish, buning uchun esa barqaror ish o'rinlarini yaratishni jadallashtirish hayotiy zaruratdir [2].

Shu bilan birga mehnat migratsiyasining yaqin orada yo'q bo'lib ketishi kutilmaydi. Migrantlar har qanday mamlakat mehnatga loyiq fuqarolarining bir qismini tashkil etadi. Bizning mamlakatimizda, aytilganidek, bu salmoq anchagina. Bugungi kuzatilayotgan migratsiya jarayoni o'ziga xos. Migrantlarning o'zga mamlakatda bo'lishi uzluksiz emas, ular o'z vatanlariga qaytib keladilar va qaytib ketadilar. Bu ularning mentalitetida muayyan o'zgarishlarga olib keladi. Ular o'z vatanlarida yashagan paytlarida ham boshqa bir madaniyatning tashuvchisi sifatida namoyon bo'la boshlaydilar. Bu madaniyat mohiyatan kam o'rganilgan bo'lib, insonning ruhiy, ijtimoiy va, albatta, lisoniy tavsifida muayyan o'ziga xosliklarni namoyon qiladi. O'zbekistonlik mehnat migrantlarining ko'pchiligi Rossiyada bo'lib turganligi, shuningdek, ularning kelib ketish chastotasi yuqoriligi sabab rus tilining, aniqrog'i, rus muloqot odatining ta'siri ancha sezilarli. Sobiq sovet davrida ham rus tilining o'zbek tiliga ta'siri juda kuchli edi. Rus tilining o'zbek tiliga ta'siri keng qamrovli bo'lgan.

Tillararo aloqa, munosabat natijalari lisoniy tizimning barcha sathlarida aks etadi. Bunday aloqa sharoitida tillarning bir-biriga ta'sir o'tkazishi muqarrar. Ona tili tizimiga xos bo'lgan xususiyatlarning yangidan o'zlashtirilgan tilga ko'chimi (ing. transfer) yuzaga kelishining sabablari turlicha. Lekin ilmiy adabiyotlarda transferensiya (transference) yoki interferensiya (interference) atamalarini olgan ushbu hodisaning kognitiv va milliy-madaniy mohiyati yetarli darajada yoritilmagan. Zotan, ikki tilda muloqot yuritish qobiliyatiga ega bo'lish oson emas, uni shakllantirish murakkab lisoniy tafakkur faoliyati bo'lib, ijtimoiy-madaniy hamda ongli-kognitiv omillar bilan bog'liq [3].

Ammo sovet davridagi rus tilining ta'siri va bugungi shunday jarayon orasida anchagina farq bor. Ilgari rus va o'zbeklar bir mamlakat fuqarolari bo'lgan. Rus xalqining yetakchiligi aniq edi. Rasmiy muloqot tili edi. Bu holatda tilning ta'siri boshqacha xarakter kasb etadi: o'zlashgan so'zlar o'zlashtiruvchi til lug'at tarkibiga kiradi. Shuningdek, "O'zbek va rus tili ikki tilli muhitda amal qilar ekan, ular o'zaro kognitiv, semantik va pragmatik ta'sirga duch keladi. Ikki tillilikning sof va aralash ikki tillilik ko'rinishlari mavjud. Sof hamda aralash ikki tilli o'quvchilari orasida olib borilgan tajriba natijalariga ko'ra, uyda bir tilda (o'zbek), maktabda bir tilda (rus) tahsil oluvchi respondent nutqida ikki assotsiatsiyalar tizimi mavjudligi o'z isbotini topdi. Ularning bir mavzudagi nutqidagi birliklar aynan ekvivalent emas. Uyda ikki tilda (o'zbek va rus), maktabda bir tilda (rus) tahsil oluvchi respondent nutqida bitta assotsiatsiyalar tizimi mavjudligi ko'rindi. Ularning bir mavzudagi nutqidagi birliklar o'xshash, 100 foiz ekvivalentlik mavjud bo'lmasa ham, ifoda vositalarida o'xshashlik darajasi yuqori" [4].

Tadqiqotchilar odatda ikki tilli muhitni ijobiy baholaydilar: "Dunyo aholisining ikki tilda yoki undan ko'p tillarda aloqaga kirishishi madaniyatlararo muloqotni osonlashtirishdan tashqari, kognitiv qobiliyatga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shaxs ikkinchi tilda aloqa o'rnatganda o'z ona tili qonuniyatlariga tayanadi. Ikkinchi til inson kognitiv-kommunikativ faoliyatiga uzatiladigan va qabul qilinadigan axborot, ma'lumot, bilim sifatini oshirish; muloqot jarayonida tushunarlilik tamoyilini ta'minlash; axborot almashinuv jarayonida turli muammolarga yechim topib berish; his-tuyg'ularni nazorat qilish; boshqa shaxsning fikri va his-tuyg'ularini aniqlashni o'rganish; muloqot natijalariga ta'sir ko'rsatish; o'z g'oyalari bilan atrofni jalb qilish va fikriga ishontirish bilan ta'sir qiladi" [5].

Albatta, bu fikrga qo'shilamiz. Shu bilan birga muayyan holatlar borki, ularga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur.

Ruscha so'kinish so'zlar(mat)ning faollashuvi ana shunday holatlardan biridir. Mat bilan bog'liq so'zlar slavyanlarning nasroniylikkacha bo'lgan davriga borib qadalib, asosiy qismi o'sha davr e'tiqodi(yazichestvo) ifodasida muayyan vazifa, xususan, la'natlash, qarg'ash mazmunini bildirgan [6].

Ammo, bizningcha, bu ifodalarning faollashuvi va keng tarqalishi migratsion jarayonlar bilan bog'liq. Ruslar Markaziy Osiyoga kirib kelishi ana shu jarayonlarning dastlabkisidir. Rus madaniyati uchun so'kinish o'ziga psixologik ko'makning bir usulidir. Mat ishlatilganda, kshp miidorda arenalin ishlab chiqariladi va bu so'kinuvchining yengil tortishiga olib keladi [7].

Ta'kidlash lozimki, mat so'zlarining genetik mazmuni la'natlash bilan bog'liq bo'lgan, haqorat bilan emas. Ammo asta-sekin aynan haqorat mazmuni kuchaya bordi. Haqorat mazmunining kuchayishi va tarqalishining kuchayishiga sabab bo'lgan keyingi migratsiya to'liqini – sobiq sovet hududidagi armiyadagi xizmat bo'ldi. Juda ko'plab rus tilini yaxshi bilmaydigan yosh erkaklar uchun mat hissiyotlar ifodasining deyarli yagona usuli bo'lib qoldi. Va ular bu usulni yashash joylarida ham tatbiq qila boshladilar. Albatta, har bir xalqning o'z so'kinish uslubi bor edi. Biroq aynan rus tilda so'kinish ommalashuvining o'ziga xos omillari bor. Sovet davrida rus xalqi va tilining yetakchilik roli toboro mustahkamlanib bordi. Rus xalqi va tiliga mansublik alohida imtiyoz sifatida ko'rila boshladi. Rus tilida so'kinish ham muayyan subkul'turaga mansublik ifodasi o'laroq ko'rila boshladi.

Ikkinchi bir omil shundaki, rus tili sovet hududi uchun eng ommalashgan xorijiy til – hatto ikkinchi ona tili sifatida ko'rila boshladi. “O'zbekistonning aksar hududlari uchun ikkinchi til sanaladigan rus tilining o'zbeklar lisoniy ongiga bir qator ijobiy jihatlari bilan birga, ayrim salbiy tomonlarini kuzatish mumkin. Bu o'zbeklarning o'z ona tilida gapira turib, rus tili so'zlarini qo'shib fikr ifola etishida ko'rinadi. Bu hodisa lingvistik nuqtai nazardan varvarizmlar deyiladi. Quyidagi so'zlar o'zbeklar nutqida ona tilida gapirganda qo'llanadi (qavsda o'zbekcha muqobili berilgan): avans (bo'nak), aklad (oylik, maosh), astanofka (bekat), balnisa (kasalxona), brat (aka), vapshe, obshe (umuman), golubsi (karamdo'lma), da (eshitaman, labbay), izdivasa qilmoq (ustidan kulmoq), zdachi (qaytim), kanikul (ta'til), kapcho'niy (dudlangan, qoq), karoichi (qisqasi), koja (teri, charm), mazgi (miya), malades (yashang, yasha, yashavor), marazilnik (muzlatgich), mashennik (firibgar, qallob), medsestra (hamshira), mo'shniy (kuchli, zo'r), narmalni (tuzuk, yaxshi, durust, chidasa bo'ladi), naski (paypoq), otdix (dam olish), pashti (deyarli), popkorn (bodroq), prayezd (kira haqi, yo'lhaqi), propka (tiqilinch (yo'lda); tiqin (idishda)), rayo'n (tuman), salyo'niy (tuzlangan, tuzlama, sho'r), svejiy (yangi), svet (chiroq), travma (jarohat), uje (bu so'z alohida so'z bilan tarjima qilinmaydi, qo'shimchalardayoq ma'nosi ifodalanadi. Masalan, “Uje keldim” deyish o'rniga “kelib bo'ldim” deyiladi), uspet qilmoq (ulgurmoq), xaladilnik (sovitkich), chtobi (uchun). Masalan, “Atayin to'liq gapirib berdim. Chtobi sen tushungin”. Tushunishing uchun atayin to'liq gapirib berdim.), ekanom qilmoq (tejamoq)”. [8]

Ikkinchi tilning o'ziga xos tomoni shundaki, bu tilni naqadar yaxshi bilmasin til tashuvchisi uchun u ona tili maqomini olmaydi. Xususan, o'z ona tilida tabu bo'lgan narsalar, masalan, so'kinish ikkinchi tilda bimalol amalga oshirilaveradi.

Keyingi davrda Rossiyaga yo'nalgan katta hajmdagi mehnat migrantlari matni qo'llashda uchinchi to'lqinni yuzaga keltirdi. Bu to'lqinning alohida o'ziga xos tomoni shundaki, o'zlashmalar rus tilining ko'chadagi, quyi qatlami bilan bog'liq bo'lib, ana shu qatlam an'analariga ko'ra keng ommalashib ketdi. Internetning o'zbek kontentida keng muhokamaga sabab bo'layotgan voqelik fikrimiz isboti bo'la oladi. Rus tilida keng qo'llanuvchi so'kinish so'zining mutaxassis tomonidan talqini ko'pchilikning e'tiroziga sabab bo'ldi. Biroq bunday so'zlarning kundalik muloqotda toboro keng qo'llanilishi o'zbek mentaliteti uchun yot bo'lgan muloqot usulini shakllantirayotgani ham bor gap.

Rus tilining o'zbek tiliga ta'siri borasida yirik tadqiqotlar olib borgan D.V. Popovning bu boradagi kuzatishlari muloqot usullarining yillar osha qanday o'zgarib borayotganini ko'rsatadi: "Tadqiqotimiz doirasida salomlashish muloqoti nutq birliklarini aniqlash maqsadida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazdik. Ijtimoiy so'rovnoma respondentlari 3 toifadagi yoshga ajratildi: maktab yoshidagi so'zlovchi va tinglovchi;

- 1) 18-25 yoshdagi so'zlovchi va tinglovchi;
- 2) o'rta yoshli so'zlovchi va tinglovchi;
- 3) katta yoshli so'zlovchi va tinglovchi.

Bular orasida salomlashish so'zlarini kuzatish shuni ko'rsatdiki, katta yoshli kishilar orasida "Assalomu aleykum", "Va aleykum assalom" kabi o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan to'liq ko'rinish qo'llansa, o'rta yoshlilar orasida "salom", "qalay" kabi qisqartma shakllar keng foydalanishda ekanligi ko'rindi." [9].

O'zgarishlar tadriji asta-sekin bo'lgani tufayli muloqot odatidagi o'zgarishlar birdan sezilmaydi. Biroq diaxron tekshirilsa, bunday o'zgarishlar anchagina ekani ko'rinadi. Yana D.V. Popov tadqiqotiga yuzlanamiz: "XX asr boshlarigacha o'zbek tilida maktub orqali salom yo'llash mazmuni murakkab konstruksiyali iboralarda ifodalansa, XX asrning ikkinchi yarmidan keyin bunday murojaat shakli rus tili ta'siri ostida qisqa ifodalar shaklini ola boshladi. A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi maktublar o'rganilganda, aksariyat hollarda maktub oxirida aynan salom aytish, salom yetkazish mazmuni mavjud emasligi, ayrim maktublardagina salom yetkazish mazmuni borligi ko'rindi. Solishtiramiz:

Kumushning maktubi: "...Oysha buvim marhum bo'lmag'anda shu oy ichi o'zingiz Toshkanga yetib kelar edingiz. Aza hamma vaqt topiladi desangiz, qizingizning ko'ngli uchun hali ham kelganingiz yaxshi. Dadamga manim arzimni aytsangiz, albatta, qaytarmas. Mendan dadamga behad salom. Kelasi oydan qo'rqaman..." (A.Qodiriy. O'tkan kunlar. – 202-b.).

Kumushning ushbu salom yo'llangan xati shu ifoda mavjud bo'lgan yagona xatdir. Boshqa maktublar oxirida salom yetkazish mazmuni mavjud emas. Maktub oxirida salom yetkazish, salom yo'llash an'anasi keyingi davrlarda rus tilining ta'sirida (ya'ni pereday privet iborasi tarjimasi) urfga kirgan" [10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbek muloqot odatining bunday o'zgarishlar ijobiy yoki salbiy deb baholash doim ham oson emas. Lekin kichik o'zgarishlar ham bora-bora til tashuvchisining olamga qarashi – olamning lisoniy manzarasiga ta'sir o'tkaza boradi. O'zbeklar muloqot odatida qadrlanuvchi halimlik, fikr ifodalashda bafurjalik, yosh va genderga doir ierarxiya susayib bormoqda. Yuqorida eslatib o'tilgan ko'plab munozaralarga sabab bo'lgan tahlilga nazar tashlasak: " "Idinax.y" so'zi jargon bo'lib, nutqiy jarayonda: "Sen mening ishimga aralashma, men seni tinglashni xohlamayman, menga sening gaplaringning qizig'i yo'q, sen mening vaqtimni olyabsan, men seni hurmat qilmayman, men senga quloq solmayman"

degan ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu leksik birlik jamoa joyida qo'llansa, tinglovchiga nisbatan shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini kamsituvchi obro'sizlantiruvchi so'z hisoblanadi.

Ammo "idinax.y" so'zi telefon orqali muloqotda: "Men seni tinglashni xohlamayman, menga sening gaplaringning qizig'i yo'q" degan ma'noni qo'pol tarzda bayon qilishga xizmat qilyapti, xolos. Ushbu holatda "idinax.y" so'zi shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini kamsituvchi, uni obro'sizlantiruvchi haqorat so'z hisoblanmaydi" [11].

Albatta, bu o'rinda mutaxassisning xulosasiga qo'shilish qiyin, biroq og'zaki, yuzma-yuz suhbat va telefondagi suhbat orasida muayyan farqlar toboro yorqinlashib bormoqda. Rossiyadan turib qilingan qo'ng'iroqlarda rus muloqot odatining aks etishi tabiiy bo'lib qoldi. Bu vatanda turib amalga oshirilgan qo'ng'iroqlarda ham o'z aksini topmoqda hamda og'zaki nutqqa ko'chmoqda. Ya'ni telefondagi muloqot yangicha urf-odatlar kasb etmoqda. Vulgar so'zlarning zamonaviy o'zbek muloqotidagi bahosi o'zgarib bormoqda. Albatta, mehnat migratsiyasi bu xil o'zgarishlarning yagona sababchisi emas, ammo asosiylaridan biri. Migratsiyaning tildagi asoratlarini baholash va tahlil qilish hali ko'p tadqiqotlarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.ngmk.uz/uploads/photo/production/surface-mining/%D0%AD%D0%BA%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%B8%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%B8%D0%B9%20%D0%B2%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%BD%D0%B8%D0%BA%201-2021.pdf>
2. Raximov G. Ingliz tilining O'zbekistonda tarqalishi (sotsiolingvistik va pragmatik jihatlar): Filol. Fanlari d...ri (DSc) dis. avt. – Toshkent, 2018. – B. 25. – 97 b.
3. Попов Д.В. Влияние иностранных языков на языковую картину мира. Дисс. на получение ученой степени доктора наук (Dsc) – Andijan, 2021 – B.226
4. Osha erda
5. https://www.google.com/search?q=%D1%80%D0%BE%D0%BB%D1%8C+%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%B0+%D0%B2+%D1%80%D1%83%D1%81%D1%81%D0%BA%D0%BE%D0%BC+%D1%8F%D0%B7%D1%8B%D0%BA%D0%B5&oq=&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUqCQgBEEUYOxjCAzIJCAAQRrg7
6. Matbuot materiallari va ilmiy maqolalar
7. <https://theoryandpractice.ru/posts/20242-rugaytes-na-zdorove-pochemu-mat-polezen>
8. Popov D.M. Ko'rs.asar – B.65
9. Popov D.M. Ko'rs.asar – B.81
10. Popov D.M. Ko'rs.asar – B.83
11. <https://www.facebook.com/100046431623110/posts/pfbid0Wro2JMV1HL2uci2YKdMejnZKEdL6ysPgaG1BYwvWJcKX8Kvkkei63xJUnj2DTPRbl/?mibextid=Nif5oz>
12. Abdunabiev A.G. К Вопросы о многоязычии населения региона // Mustaqil O'zbekiston va millatlararo munosabatlardagi barqarorlik. – Toshkent, 1995. – B. 182.
13. Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
14. Пьянов А.Е. Статус русского языка в странах СНГ // Вестник КемГУ. – № 3 (47) 2011. – С. 55-59.
15. Рязанцев И.П., Подлесная М.А., Писаревский В.Г., Каргин Е.А. Русский мир в Узбекистане сегодня // Салмина Л.М. Языковое значение как когнитивный феномен

// Ученые записки Казанского государственного университета. – Том 150, кн. 2. – Гуманитарные науки, 2008.

16. Саъдуллаев Д. С. Функционирование русского языка в Узбекистане (в свете действия закона «О государственном языке Республики Узбекистан»)

17. Crystal David. The Cambridge Encyclopedia of Language. Second edition. – Cambridge, Cambridge University Press, 1997. – P. 372.

18. Susanne Romaine. Bilingualism. Second edition. – Blackwell Publishing, 1995. – P. 22.

19. Schiffman, Harold (ed.), 2012, Language Policy and Language Conflict in Afghanistan and its Neighbors: The Changing Politics of Language Choice, Leiden // Boston. X. Шиффман «Til siyosati va Afg'onistonda tillar konflikti: til tanlashning o'zgaruvchan siyosati» – Boston, 2012. – B. 206-208.

20. Abdumajidov F. Davlat tili haqida (qonunga sharhlar). – T., 1998.

21. Абрамов В.П. Субъекты и факторы языковой политики в современной России // Русское слово в многоязычном мире: Материалы XIV Конгресса МАПРЯЛ (г. Нур-Султан, Казахстан, 29 апреля — 3 мая 2019 года) [Электронный ресурс] / Ред. кол.: Н. А. Боженкова, С. В. Вяткина, Н. И. Клушина и др. — СПб.: МАПРЯЛ, 2019. – С. 11-15.

22. Аврорин В. А. Двужычие и школа [Текст] / В. А.Аврорин // Проблемы двуязычия и многоязычия. – М.: Высш.шк., 1972. – 246 с.

23. Александр Н. Евдокимов, Татьяна А. Давыдова, Дмитрий А. Савкин «Русский язык в Центральной Азии: современное состояние и перспективы» // Проблемы постсоветского пространства / Post-Soviet Issues. 2020;7(3):373-388.

24. Апресян Ю.Д. Языковая картина мира и системная лексикография. – М.: Языки славянских культур, 2006.

25. Артеменко О.И. Русский язык в образовательной и культурной среде многоязычной России // Культура и цивилизация. 2020. Том 10. № 2А. С. 147-DOI: 10.34670/AR.2020.21.85.017